

MAXMUR HAYOTI VA IJODIDA INDIVIDUALLIK

Maxmudxo‘jayeva Dilkashoy Maqsudxo‘ja qizi

Farg‘ona Davlat universiteti

filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Mahmud (Mahmudxo‘ja Mahmud) hayoti, adabiy muhitdagi mavqeyi va uning she‘riyatidagi individuallik omillari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shoirda individual jihatlarining shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar mustaqil yondashuv asosida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkor, individuallik, milliylik, ijtimoiy qatlam, ijodkor tili, arz.

Maxmur o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri. Shoir Mulla Shermuhammad Akmal Ho‘qandiyning o‘g‘li. Qo‘qondagi Madrasai Mirda tahsil olgan. Umarxon qo‘shinida sarbozlik, sipohiylik qilgan. Maxmur yoshligidan she‘riyatga havas qo‘yib, Sa‘diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy merosini o‘rgangan. Shoirning shaxsiy hayoti juda og‘ir kechgan, bu esa uning ijodida ham yorqin iz qoldirib, ko‘pchilik she‘rlarining mazmun ruhiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Maxmur tabiatan munofiqlik va riyokorlikni qat‘iy qoralovchi, hiylanayrang va qing‘ir ishlarni yoqtirmaydigan, ayni zamonda, nozik did va serjahl, o‘z qadrqimmatini yuqori tutuvchi inson bo‘lgan.

Maxmurning an‘anaviy devon tuzganligi noma‘lum. 1950 yilda Po‘latjon Qayumov va Asqarali Charxiylar izlanishlari tufayli Qo‘qonda Maxmurning o‘zbek va forsiy tillardagi she‘riy majmuasi topilgan. Maxmur asarlarining deyarli hammasi o‘z mazmun va ruhiga ko‘ra, hajviy va tanqidiy yo‘nalishdadir. Mumtoz she‘riyatning g‘azal, masnaviy, muxammas va qasida turlarida yaratilgan bu asarlar milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyotning Maxmur ijodida yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Shoir o‘z davridagi

tuzumning ko'pdan-ko'p illatlarini keskin tanqid ostiga olgan, o'sha zamondagi adolatsizlik, zo'ravonlik va huquqsizlikni fosh etgan. Bu tanqid, ko'pincha, «jafokor falak», «berahm charx» qilmishidan o'tli shikoyat, achchiq taqdirdan, befoy hayotdan nola-fig'on tarzida yuzaga kelgan.

Qishloq ahlining och-yalang'och hayoti, o'lkani qurshagan vayronagarchilik, xarobazorlarga aylangan qishloklarning ayanchli manzarasi «Hapalak» satirasida jonli va ta'sirchan chizilgan. Unda shoir juda katta ijtimoiy mazmunni o'ziga xos ramziy obrazlarda, xalqona qochiriq va achchiq kinoyalar, imo-ishoralar vositasida esda qolarli darajada badiiy mahorat bilan ifodalay olgan. Maxmurning xalq so'zlashuv tiliga ko'chib, maqol-matallar doirasidan mustahkam o'rin olgan «Tovuqi ignachiyu o'rdagu g'oz — kapalak!; Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak!; Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu qoqu xarob, ochlikdan egilib qomati misli kamalak» kabi misralari Hapalak qishlog'ining xarobaga aylanganini (shoirning onasi shu yerlik bo'lgan), dehqonlarning esa o'ta qashshoq hayotini ishonarli gavdalantiradi. Vayrona qishloqlar va bechora dehqon ahli mavzui Maxmurning boshqa she'rlarida ham shu tarzda tanqidiy ruhda hayotiy tahlil etilgan. Maxmurning ko'pgina hajviy she'rlari zamonasidagi aniq shaxslarga qaratilgan: «Isqotiy», «Amakim», «Xo'ja Mir Asad hajvi», «Hajvi Atoyi poraxo'r», «Qozi Muhammad Rajab Avj sifatleri» va b. Maxmur ijodiy merosida hajv san'atining murakkab, ayni zamonda, mahsuldor va yorqin usullaridan biri-o'z-o'zini fosh etish usulida yaratilgan asarlar alohida o'rin tutadi. Shoirga zamondosh tarixiy shaxslar-yuqori lavozimli amaldorlardan Hoji Niyoz, Hakim Turobiy, Mulla Ya'qub Xo'jandiy kabilarning jirkanch tabiati va qabih amaliy-ijtimoiy faoliyatlarini ayovsiz fosh etuvchi hajviyalar bu turkumning yetuk namunalaridir. Shoir qoldirgan adabiy meros ichida «Karimquli Mehtarining sifatleri» deb nomlangan masnaviy alohida o'rin tutadi. Tarixan hayotda bo'lgan voqeani badiiy bayon etuvchi bu asarda shoir mohir hajviy-hazil she'r ustasi sifatida namoyon bo'ladi. Karimquli Mehtar tomonidan o'ziga ajratilgan sovg'a-otni ta'riflash jarayonida hajviy tasvirning go'zal lavhalarini yaratadi. «Suv ham ichsa tamog'iga tiqilar, Pashsha gar qo'nsa yoliga yiqilar» darajasida qirchang'i bo'lgan, «kunda yetti no'xta uzar, misli qo'chqor suzar, og'zida tishdin asar yo'q» ot ta'rifida Maxmur xalq

ogʻzaki ijodining lof, askiya turlari ruhi va uslubida quvnoq misralar bitadi («Ham harishu ham xarobu ham badnom, Ikki ming ayb angadur mudom...»).

Maxmur-zullisonayn shoir. Fors tili va sheʼriyatini mukammal bilgan. Bir qancha forsiy asarlar ham yaratgan. Uning merosida Sharq sheʼriyatining mulamma va shiru shakar turlarining namunalari mavjud. Maxmur ijodiy faoliyati oʻzbek mumtoz adabiyotida tanqidiy yoʻnalishning, ayniqsa, hajviyotning taraqqiyotida navbatdagi yuqori bosqich boʻldi.

P. Qayumovga koʻra, Mulla Shermuhammad Akmal Qoʻqon shahridagi Madrasayi Mirda mudarrislik qilgan. Shoir Akmal toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat-ul asʼhob” asarida ham uchraydi. Bu asarning muallifi Qori

Rahmatullo Akmalning kamolga yetishgan, iqtidorli shoir ekanini, uning adabiyot ixlosmandlari orasida ancha obroʻga ega boʻlganini aytadi. Bu asar muallifiining yozishicha, Akmal tojik va oʻzbek tillarida yozilgan ikkiga devon tuzgan.¹ Lekin bu asarda Akmalning, xuddi Maxmur kabi tugʻilgan va vafot etgan yili haqida maʼlumot uchramaydi. Aytishlariga qaraganda, Mulla Shermuhammad Akmal oʻz davrining tanilgan xattotlaridan Turdialining qiziga,

Maxmurning boʻlajak onasiga uylangan. Xattot Turdiali esa oʻz davrida katta naqshli yozuvlar yozish boʻyicha shuhrat topganligi aytib oʻtilgan. Oʻz navbatida, Maxmurning ijod ahli vakillaridan biri boʻlib ulgʻayishiga oilaviy ijodiy muhit sabab boʻlgan boʻlsa, ne tong! Maxmur otasi rahbarlik qilgan madrasada oʻqigan. Aziz Qayumov u yoshlik yillaridan adabiyotga qiziqqanligini, sheʼrlar mashq qila boshlagani, va bu sheʼrlari orqali adabiyot shinavandalari orasida muhokama mavzusi boʻlganligini qayd etadi. Maxmur oilasida iqtisodiy jihatdan qiyinchiliklar, muhtojliklar boʻlganini sheʼrlarida qayd etadi. Hatto, farzandlarini ham taʼminlay olmaganini bir sheʼrida kuyinganicha yozadi:

Har se atfoli duogoʻye, ki hazrat donand,

Har sero banda tasadduq kunam az hazrati jon.

Roʻzi id ast nadorand libose har se,

Onchi zodand zamon nav hamon, tarz hamon.

Shoir oilasining iqtisodiy tomonlama muhtojlik ichida yashagani bir qator she'rlarida ta'kidlanadi. Maxmurning "Maxmurning Amir Umar Sultonga arzi" sarlavhali she'ri quyidagicha boshlanadi:

*Ey jahongiri dinu-dunyo ham,
Berdi haq dinu davlatingni baham.
Arz etar xokisor Maxmuring,
Banda zodi zalili mahjuring...*

Xulosa: Bir so'z bilan aytganda, Maxmur iqtisodiy jihatdan yaxshigina qiynalgani, bolalarining yo'qchilikdan ezilayotganini ko'rish u uchun og'ir bo'lgan va bunday hol hech bir oilaga dahl solmasligini istashi ko'p she'rlaridan ma'lum. Va ijodkor bir she'rida qo'lidan she'r yozishdan boshqa ish kelmasligini afsus ila qayd etib ketgan:

*Na maro kasb na dar dast hunar g'ayr az she'r
Na maro yovare, na dodare g'ayr az-shon
Na maro g'alla zi ahdi tu rasid, na joma Na
maro boisi avqoti amal hast ayon.*

Maxmurning tiliga e'tibor bersak, Aziz Qayumov tomonidan yig'ilgan to'plamdagi she'rlarining aksariyat qismini tojik tilida yozilganligining guvohi bo'lamiz. U atrofidagi kimsalarning johilligidan, nodonligidan kuyinganicha davr jamiyatiga nisbatan g'azab ko'zi bilan qaragani "Arzi qishlog'i Hapalak ba janobi Said Umar Sulton"ida yozadi:

*Shaho, kamina duogo'yi ibni Akmalro...
Buvad zi jam'i g'ulomat Skandaru Doro.
Ba davri chun to jahongir qay ravo boshad,
Kamina bandai doiy fitad zi g'am az po...*

Maxmur bu kabi she'rlari yuqori tabaqa vakillari bo'lmish shoh va uning atrofidagi kimsalarning xalq boshiga solgan ko'rguliklarni, ularning sababkorlarini ayovsiz tanqid ostiga olib, real hayot voqeligini yoritish yo'lidan bordi. Maxmur ijodi va hayotining uyg'unligi haqida Aziz Qayumov yozadi: "Maxmur she'rlari XIX asr boshlarida Qo'qon

xonligidagi ijtimoiy hayotni, xonlar va beklar zulmida ezilgan mehnatkash dehqonlarning og‘ir ahvolini, ko‘p ilg‘or fikrli kishilarning xor-u zorlikda yashaganini real va aniq ifodalaydi va uning xalqparvar shoir ekanligini ko‘rsatadi.”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.—T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y, 18-bet.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi, t. II, b. 224, Toshkent.
3. O‘zbek poeziyasining antologiyasi, b. 189, Toshkent, 1948.
4. Aziz Qayumov. “Maxmur.” O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1958.
5. Tuxfat-ul axbob fi tazkirat-ul as’hob, Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmasi.